

MEHANIZATORLAR UYIDA



BARCHA BIRDEK MASA QILDI

Qishloq xo'jaligida asosan hosilning cho'g'i, albatta, mehanizatorlarning yerga bergan ishlovlar bilan baholanadi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqqori hosildorlikning garovi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish sanaladi. Mehanizator kun bo'yini dalada ekinlarga ishlov beradi. Texnika charchog'ini chiqarish va ertangi kunga yangi kuchni fermerlar ishchilari bilan bir dasturxonda, bir piyola choy ustida, dildan suhbatlashib, o'yin-kulgu bilan chiqaradi.

Guliston MMTP hududida joylashgan "Aqrab oylar durdonasi" fermer xo'jaligi dala shiyponida mehanizatorlar uyi tashkillangan. MMTP hududida 2100 ga paxta-g'alla maydoni bo'lib, 980 ga yer maydoniga pata ekilgan. Mehanizatorlar paxtadan yaxshi natija ko'rsatish uchun tinim bilmay ishlashmoqda.

Mehanizatorlar uyida tuman prokurori Ilhomjon Xodjayev tashabbusi bilan bayram dasturxoni yozildi.

Tuman hokimi Dilshodjon Djalilov bosh IIB boshlig'i Doniyor Rahmonov va qishloq xo'jaligi mas'ullari fermerlar, mexanizatorlar va ishchilarni xormanglar, deb mehanizatorlar uyiga tashrif buyurdilar.

Tuman hokimi va prokuror so'zga chiqishib, qishloq xo'jaligida erishilayotgan yutuqlar va qilinishi kerak bo'lgan vazifalarga to'xtalib o'tdilar. Fermer yerga qancha yaxshi qarasa shuncha o'zi uchun manfaatdorlik bo'lishini, bu faqat foydali ekanligini ta'kidladilar.

Dehqonchiliklarga baraka tilanib, jonliq so'yildi. Qozonda osh damlanib, suyuq ovqat solindi. Bularning bari qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan xizmatchilar uchun bo'ldi. O'yin-kulgu, dildan suhbatlashdilar. Madaniyat bo'limining havaskorlari o'z chiqishlari bilan yig'ilganlarni shod etishdi.

Xullas, barcha birdek maza qildi.

YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2023-07-17 16:43:41